

UDK;332

D.Sh.Yavmutov

BuxDU, i.f.d., professor

B.M.Yuldasheva

BuxDU, t.f.f.d., dotsent

MINTAQANING TABIIY RESURS SALOHIYATINI REKREATSION MAQSADLARDA BAHOLASH MASALALARI

Annotatsiya: Mazkur tadqiqotda hududlarning tabiiy-rekreatsion resurslarini baholash va ulardan oqilona foydalanish masalalari ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tabiiy-rekreatsion resurslarni baholash turli yondashuvlarga ega bo'lib, ular tabiiy-iqlimiylar, tarixiy-madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarni o'z ichiga oladi. Ayniqsa, iqtisodiy baholash rekreatsion resurslarni samarali boshqarish va muhofaza qilishda muhim rol o'yinaydi.

Shuningdek, tadqiqotda tabiiy-rekreatsion resurslarni tibbiy-biologik, estetik, texnologik va iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida baholash zarurligi ta'kidlanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tabiiy resurslarning aniq qiymatini belgilash va ulardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan, tabiiy-rekreatsion resurslarni baholash tizimini takomillashtirish va ulardan turizm infratuzilmasini rivojlantirishda foydalanish yo'nalishlari muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari tabiiy resurslardan samarali foydalanish, ekologik barqarorlikni ta'minlash hamda hududiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqishda ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Annotatsiya: В данном исследовании рассматриваются вопросы оценки природно-рекреационных ресурсов регионов и их рационального использования с научной и практической точек зрения. Результаты исследования показывают, что существуют различные подходы к оценке рекреационных ресурсов, включающие природно-климатические, историко-культурные и социально-экономические аспекты. В особенности экономическая оценка играет важную роль в эффективном управлении и охране рекреационных ресурсов.

Кроме того, в исследовании подчеркивается необходимость оценки природно-рекреационных ресурсов на основе медико-биологических, эстетических, технологических и экономических показателей. В условиях рыночной экономики важно точно определить стоимость природных ресурсов и обеспечить их рациональное использование. В связи с этим обсуждаются направления совершенствования системы оценки природно-рекреационных ресурсов и их использования в развитии туристической инфраструктуры. Результаты исследования служат научной основой для эффективного использования природных ресурсов, обеспечения экологической устойчивости и разработки региональных программ развития.

Abstract: This study examines the assessment of natural and recreational resources in different regions and their rational use from both scientific and practical perspectives. The research results indicate that various approaches exist for evaluating recreational resources, incorporating natural-climatic, historical-cultural, and socio-economic aspects. Particularly, economic valuation plays a crucial role in the effective management and conservation of recreational resources.

Additionally, the study highlights the necessity of assessing natural and recreational resources based on medical-biological, aesthetic, technological, and economic indicators. In a market economy, it is essential to accurately determine the value of natural resources and ensure their sustainable use. Therefore, the study discusses ways to improve the system of natural and recreational resource assessment and their role in the development of tourism infrastructure. The findings of this research provide a scientific basis for the efficient utilization of natural resources, ensuring ecological sustainability, and developing regional growth strategies.

Tayanch so'zlar: Tabiiy-rekreatsion resurslar, iqlim baholashi, ekologik baholash, rekreatsion hudud, estetik baholash, tibbiy-biologik baholash, texnologik baholash, ekonomik

baholash, kadastr tizimi, samara harorat (ET), ekvivalent samara harorat (EET), radiatsiyaga teng harorat (RET).

Ключевые слова: Природно-рекреационные ресурсы, климатическая оценка, экологическая оценка, рекреационная зона, эстетическая оценка, медико-биологическая оценка, технологическая оценка, экономическая оценка, кадастровая система, эффективная температура (ЭТ), эквивалентная эффективная температура (ЭЭТ), радиационно-эквивалентная температура (РЭТ).

Key words. Natural and recreational resources, climate assessment, ecological assessment, recreational area, aesthetic assessment, medical-biological assessment, technological assessment, economic assessment, cadastre system, effective temperature (ET), equivalent effective temperature (EET), radiation-equivalent temperature (RET).

Kirish. O‘zbekiston o‘zining qulay tabiiy-geografik o‘rni va boy tarixiy merosi bilan bir qatorda, katta turizm va rekreatsiya salohiyatiga ega. Mamlakatda 7,5 mingga yaqin madaniy meros obyekti mavjud bo‘lib, ular bilan birga takrorlanmas tabiiy-iqlimi turistik resurslar ham uchraydi. Bunday ulkan salohiyat O‘zbekistonning jahonning yetakchi turistik mintaqalaridan biriga aylanishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Tashqi va ichki turizmnинг rivojlanishi, xorijiy va mahalliy sayyoqlar sonining ortib borishi natijasida yurtimizda madaniy va tarixiy turizm obyektlaridan samarali foydalanish bilan bir qatorda, turli hududlarning tabiiy sharoiti va tabiiy resurslaridan rekreatsiya va turizm maqsadlarida foydalanishga bo‘lgan ehtiyoj ham ortmoqda. Bu esa o‘z navbatida hududlarning tabiiy sharoiti va resurslarini rekreatsiya hamda turizm maqsadlarida baholash zaruriyatini tug‘diradi. Mamlakatimiz hududlarining tabiat va tabiiy resurslari rekreatsiya va turistik maqsadlarda yetarlicha baholanmagan. Shu nuqtayi nazardan, ushbu dissertatsiya mavzusi dolzarb ahamiyatga ega.

Har bir hudud o‘ziga xos rekreatsiya resurslari salohiyatiga ega bo‘ladi. Rekreatsiya resurslari deganda insonning ish qobiliyatini tiklashiga, hayot sifati va umumiyl salomatligini yaxshilashiga xizmat qiluvchi tabiiy va antropogen resurslar tushuniladi. Rekreatsiya resurslari tabiiy va inson tomonidan yaratilgan (antropogen) shaklda bo‘lishi mumkin. Antropogen rekreatsiya obyektlari insonlarning sog‘lig‘ini mustahkamlash, dam olish va kayfiyatini ko‘tarishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, tabiiy rekreatsiya resurslari asosan inson salomatligi, ruhiy holati va ishchanlik qobiliyatini tiklashga xizmat qiladi.

Turizm jahon iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, u turli mintaqalar va mamlakatlar iqtisodiyotida barqaror rivojlanish sharoitida katta ahamiyat kasb etadi. Dunyoning deyarli barcha hududlari – Arktikaning sovuq sahrolaridan tortib, Afrikaning jazirama savannalarigacha, Amazonkaning o‘rmonlaridan tortib, Qizilqum va Qoraqumming barxanli cho‘llarigacha – o‘ziga xos rekreatsion salohiyatga ega.

Hozirgi kunda dunyo bo‘ylab turizm sohasi mutaxassislari postpandemiya sharoitida turizmni tiklash va rivojlantirish yo‘llari bo‘yicha tadqiqotlar olib borib, turli strategiyalarni taklif etishmoqda. Taklif qilinayotgan turli ssenariyi va variantlarni amaliyatga joriy etish uchun har bir hududning ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy-ekologik sharoiti bilan birga tabiiy-rekreatsion salohiyati ham chuqr o‘rganilishi zarur.

Hududlarning turistik-rekreatsion rivojlanish samaradorligi, asosan, turistlarga xizmat ko‘rsatuvchi turistik resurslar va ularning infratuzilma darajasiga bog‘liq. Shu sababli, mintaqada turizmnинг alohida turlarini rivojlantirish istiqbollarini aniqlash uchun mavjud turistik resurslarni nafaqat tavsiflash, balki ularni kompleks baholash zarur. Bu esa, o‘z navbatida, ushbu resurslardan samarali foydalanish imkoniyatini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning metodologik asosi. Tadqiqot jarayonida mavzu yuzasidan O‘zbekiston Respublikasining tegishli qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining qarorlari chuqr o‘rganildi. Shuningdek, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalardagi taniqli olimlarning ilmiy asarlari tahlil qilinib, ularning mazmun-mohiyati

tadqiqot mavzusini yoritishda asos sifatida foydalanildi. Mavzuni yanada chuqr olib berish maqsadida mavjud ko'rsatkichlar statistik tahlil asosida o'rganildi.

Bundan tashqari, tadqiqot jarayonida mavzuga oid ma'lumotlar va nazariyalarni tahlil qilishda mantiqiy fikrlash, ilmiy mushohada, tizimli yondashuv hamda qiyosiy tahlil kabi ilmiy-uslubiy metodlardan foydalanildi.

Mavzuga doir adabiyotlar sharhi. Hududlarning tabiiy resurslarini rekreatsiya maqsadlarida, rekreatsion resurslarini esa turistik maqsadlarda baholash masalalari turli olimlar va ilmiy-tadqiqot muassasalari tomonidan turli yondashuvlarga asoslanib o'rganilmoqda. Ushbu yo'nالishda amalga oshirilgan qator tadqiqotlarni tahlil qilib chiqamiz.

I.I. Ziganshin va D.V. Ivanovning "Alovida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarning rekreatsion salohiyatini kompleks baholash uslubiyoti" mavzusidagi maqolasida alovida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarning rekreatsion salohiyatini kompleks baholash bo'yicha mualliflarning metodologiyasi muhokama qilinadi [1]. Tatariston Respublikasi misolida hudud yoki obyektning rekreatsion salohiyatini baholashda tabiiy jozibadorlik, madaniy-ma'rifiy qadriyatlar, transport va infratuzilmaning qulayligi, muhofaza etiladigan tabiiy obyektlarning holati hamda ularga tashrif buyuruvchilar uchun ekologik xavflarning mavjudligi kabi ko'rsatkichlarni hisobga olish taklif etiladi.

I. Korolevning "Qishloq joylarni rekreatsion baholashning funksional modeli" mavzusidagi tadqiqot ishida jahon tajribasida aholining qishloq joylarda hordiq chiqarishga bo'lgan talabi bor-yo'g'i 12-15 foizga qondirilayotgani ta'kidlanadi. Muallif ushbu holatni qishloq turizmi resurslaridan samarali foydalanilmayotgani, shuningdek, federal va mintaqaviy darajada qishloq turizm resurslarini baholashning kompleks metodologiyasi mavjud emasligi bilan bog'laydi [2].

Shuningdek, muallif rekreatsion salohiyatni baholash usullari qishloq joylarida turizm resurslarini yetarlicha qamrab olmasligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, qishloq turizmining salohiyati qishloq mulklari tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati bilan baholanishi lozim. Muallif qishloq turizmi bo'yicha adabiyotlarni chuqr tahlil qilib, ushbu fenomenni o'rgangan va qishloq turizmini ikki asosiy nuqtai nazardan ko'rib chiqish mumkinligini asoslagan. Birinchi yondashuvga ko'ra, qishloqqa xos bo'lgan diqqatga sazovor joylar muhim ahamiyat kasb etadi, ikkinchi yondashuv esa urbanizatsiyalarinmagan (shaharlashmagan) hududlarni hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi.

Yu.B. Porosenkov va Ye.B. Mishon tomonidan tayyorlangan "Hududlarning rekreatsion baholash masalasiga doir" mavzusidagi tadqiqot ishida hududlarning rekreatsion salohiyatini baholash masalasi chuqr tadqiq etilgan. Ushbu ishda texnik, estetik, iqtisodiy va ijtimoiy baholash masalalari yoritilgan [3].

R.I. Geta, A.V. Egorina, K.T. Saparov va N.J. Jensikbaevalarning "Oltoyning Qozog'iston qismining rekreatsion salohiyatini axborot nazariyasiga asosan baholash uslubi" nomli tadqiqotida axborot nazariyasiga asoslanib, Oltoyning Qozog'iston qismining rekreatsion salohiyatini baholashning uslubiy asoslari ko'rib chiqiladi [4]. Tadqiqotda rekreatsion tizimlarni baholashga oid turli usullar tahlil qilinib, axborot nazariyasining fundamental asoslaridan biri bo'lgan entropiya usuli eng maqbul usul sifatida tanlangan. Shuningdek, ushbu usulning rekreatsion tizimlarga tatbiq etilgan natijalari tabiiy hududlarning landshaft xilma-xilligi xarakteristikasini aniqlash uchun foydalanilishi mumkinligi asoslab berilgan.

N. Grdzelishvili va L. Kvaratskhelianing "Hududlarning turistik va rekreatsion resurslarini baholashning uslubiy xususiyatlari va muammolari" mavzusidagi tadqiqot ishida hududlarning turizm va rekreatsion salohiyatini iqtisodiy baholash muammosiga oid nazariy yondashuvlar o'rganilgan [5]. Mualliflar rekreatsion resurslarni iqtisodiy baholashga yondashuvlarni aniqlab, ushbu resurslarni iqtisodiy baholash usullarining ishlab chiqilgan tasnifini taqdim etganlar. Tadqiqotda, shuningdek, Gruziya Respublikasi hududida geografik landshaftlarni vertikal rayonlashtirishning klassik yondashuvi amalga oshirilgan.

N. Stupenning "Methodological fundamentals of the assessment of the recreational territories resource potential" maqolasida rekreatsion hududlarning resurs salohiyatini kompleks

baholashga uslubiy yondashuv tahlil qilinib, rekreatsion resurslarni o'rganish jarayonida aniqlangan muammolar asosida integral indeksdan foydalanish taklif etilgan [6]. Ushbu indeks quyidagi ko'rsatkichlarni hisobga oladi: tabiiy resurslar, tarixiy-madaniy omillar, ijtimoiy-iqtisodiy sharoit va ekologik holat.

Tadqiqot natijasida Ukrainadagi rekreatsion hududlarning resurs salohiyatini baholash amalga oshirilib, integral indeks asosida hududlar yuqori, o'rta, past va juda past darajalarga ajratilgan.

Muhokama va natijalar. Hududlarning tabiiy-rekreatsion resurslarini baholash va ulardan oqilona foydalanish masalasi ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, rekreatsion resurslarni baholashning turli yondashuvlari mavjud bo'lib, ular tabiiy-iqlimiyl, tarixiy-madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarni o'z ichiga oladi. Turizm resurslarini iqtisodiy baholash nisbatan to'liq ishlab chiqilgan bo'lsa-da, uni amaliyatga joriy etishda qator muammolar mavjud.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, tabiiy-rekreatsion resurslarni baholash tibbiy-biologik, estetik, texnologik va iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida olib boriladi. Ayniqsa, iqtisodiy baholash rekreatsion resurslarni samarali boshqarish va ulardan oqilona foydalanishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tabiiy resurslar ham iqtisodiy qiymatga ega bo'lishi lozim. Har bir xizmat yoki mahsulotning qiymatini aniq belgilash orqali resurslardan samara va barqarorlik bilan foydalanish ta'minlanadi. Tabiiy-rekreatsion resurslarni iqtisodiy baholashning yana bir muhim maqsadi ularni muhofaza qilishni samarali tashkil etish hisoblanadi.

So'nggi yillarda iqtisodchilar, ekologlar, shifokorlar va geograflar kabi turli soha mutaxassislarining e'tibori rekreatsiyani rivojlantirish masalasiga qaratilgan. Rekreatsiya faoliyati inson salomatligini tiklash, jismoniy va, eng muhimi, ruhiy kuchini tiklashga xizmat qiladi. Ushbu resurslarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni rag'batlantirish maqsadida iqtisodiy baholash zarurati yuzaga keladi. Bunday baholash rekreatsion resurslardan yanada samarali va oqilona foydalanish bo'yicha turli tadbirlarning samaradorligini aniqlash imkonini beradi.

Tabiiy resurslarni iqtisodiy baholash ko'pincha investitsion baholash deb ham yuritiladi. Kapital qo'yilmalarning oqilona boshqarilishi tabiiy boyliklarni samarali ekspluatatsiya qilish imkonini beradi. Bu jarayonda tabiiy resurslarning muqobil ishlatilishi, texnologik yondashuvlarning o'zgarishi va rekreatsion infratuzilmaga investitsiyalar kiritish muhim omillardan biri sifatida qaraladi.

Asosiy muammo shundaki, tabiiy-rekreatsion resurslarni iqtisodiy jihatdan baholash murakkab jarayondir. Bugungi kunga kelib, ushbu resurslarni ball usuli asosida baholash yondashuvlari ishlab chiqilgan. Biroq, bu usullar to'laqonli baholash metodikasi sifatida tan olinmaydi, chunki ular sub'ektivlikdan xoli emas va iqtisodiy tahlilga mos keluvchi aniq ko'rsatkichlarni yetarlicha taqdim eta olmaydi. Shuningdek, tabiiy resurslarning ayrim xususiyatlari faqat nisbiy qiymatlar orqali baholanadi, masalan, landshaftning qiymati. Shu bois, agar miqdoriy baholash usullari hali mavjud bo'lmasa yoki to'liq ishlab chiqilmagan bo'lsa, ball usuli nisbatan maqbul usul sifatida ko'riliши mumkin.

Xalqaro va mahalliy mutaxassislar O'zbekiston Respublikasining boy turistik salohiyatga ega ekanligini doimiy ravishda ta'kidlab kelishmoqda. Bunda asosan tarixiy va madaniy meros bilan birga mamlakat tabiatining umumiy xususiyatlari ham hisobga olinadi. Biroq, O'zbekiston va uning mintaqalarining tabiiy sharoiti hamda resurslari hali ham to'liq turistik-rekreatsion baholangan emas. Kelajakda mamlakatda turizm sohasi yanada rivojlanishi, mavjud salohiyatdan samarali va kompleks foydalanish, shuningdek, turizmni rivojlantirish bo'yicha hududiy dasturlarni ishlab chiqish uchun tabiiy resurslar to'liq iqtisodiy baholanishi lozim.

Tabiiy resurslarni hisobga olish va baholash bo'yicha kadastr tizimi ushbu jarayonda muhim rol o'ynaydi. Kadastr tizimi katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va ulardan samarali foydalanishni ta'minlaydi. Umuman olganda, kadastr nafaqat resurslarning tabiiy holati to'g'risidagi ma'lumotlarni aks ettirishi, balki ularning prognoz xususiyatlarini ham o'z ichiga olishi kerak. Tabiatni boshqarishning dolzarb muammolaridan biri shundaki, kadastr faqat

ro'yxatga olish vositasi sifatida emas, balki iqtisodiy va ekologik samaradorlik talablariga javob beradigan tizim sifatida shakllanishi lozim.

Eng katta qiyinchiliklar kadastr ko'rsatkichlari tarkibini aniqlash, texnik-iqtisodiy parametrlari tanlash, hisoblash va baholash mezonlarini belgilash bilan bog'liq. Sifatli va miqdoriy ko'rsatkichlar tabiiy resurslarni guruqlash va tasniflash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, taxmin qilingan ma'lumotlar bir-biri bilan taqqoslanishi, tabiiy va iqtisodiy rayonlashtirish imkoniyatlarini ta'minlashi lozim.

Shunday qilib, kadastrning uslubiy asosini buxgalteriya hisobi, ishlab chiqarish va iqtisodiy tarkibning taxminiyo ko'rsatkichlari jamlanmasi tashkil etadi. Bu yerda asosiy vazifa tabiiy resurslarni muhofaza qilishni ta'minlash va ulardan oqilona foydalanish samaradorligini oshirishdan iborat.

Tabiiy sharoit va resurslardan foydalanish ularni baholashni talab qiladi. Baholash tartibi quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Baholash obyektlarini tanlash – tabiiy majmualar, ularning tarkibiy qismlari va xususiyatlarini aniqlash;
2. Baholash subyektlarini ajratib olish – baholash o'tkaziladigan subyektni belgilash;
3. Baholash mezonlarini shakllantirish – tadqiqot doirasi, maqsadi va mavzuning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda baholash mezonlarini ishlab chiqish;
4. Gradatsiya darajalash shkalalari parametrlarini ishlab chiqish – shkalada predmet va obyekt o'rtaidagi taxminiy munosabatlarni belgilash.

Har bir bosqich aniq baholash obyektining subyekt bilan o'zaro ta'sirini aks ettiradi. Masalan, dam olish uchun sharoitlarni baholash besh bosqichli shkala asosida amalga oshiriladi. Gradatsiyalar quyidagicha:

- Eng qulay
- Qulay
- O'rtacha qulay
- Qulayligi past
- Noqulay

Bunday baholash tizimi tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va ularni muhofaza qilish bo'yicha asosiy mezonlarni belgilashda muhim ahamiyatga ega.

Tabiiy resurslarni baholash uchta asosiy turga bo'linadi: tibbiy-biologik, psixologo-estetik va texnologik. Ulardan tibbiy-biologik baholash tabiiy omillarning inson organizmiga ta'sirini aniqlashga qaratilgan bo'lib, bunda ayniqsa rekreatsion iqlim resurslarini baholash yetakchi rol o'ynaydi. Chunki inson salomatligi va dam olish sharoitlari ob-havo omillari bilan chambarchas bog'liq.

Iqlim ma'lum hududga xos uzoq muddatli ob-havo rejimi bo'lib, u inson organizmiga muayyan meteorologik sharoitlar orqali ta'sir qiladi. Bu meteorologik hodisalar majmuasi sifatida tushunilib, troposferaning quyi qatlaming ma'lum bir hududdagi holatini aks ettiradi. Shu sababli, iqlim sharoitlari va ob-havoning inson holatiga ta'siri doimiy tahlil qilinib borilishi lozim.

Iqlimshunoslar va balneologlar iqlimga baho berishda nafaqat ob-havo sharoitlarining jismoniy xususiyatlariga, balki uning insonning emosional holatiga ham katta e'tibor qaratadilar. Buning uchun kompleks baholash usuli qo'llanilib, unda shartli (samara) harorat tizimidan foydalaniлади. Bu tizim meteorologik elementlarning murakkab o'zaro ta'sirini inobatga oladi, jumladan: havo harorati, nisbiy namlik, shamol tezligi, quyosh nuri va uzoq to'lqinli nurlanish.

Bunday murakkab ko'rsatkichlar quyidagi turlarga ajratiladi: samara harorat (ET) – harorat va namlik ta'sirini ifodalaydi, ekvivalent samara harorat (EET) – harorat, namlik va shamol tezligini hisobga oladi, radiatsiyaga teng harorat (RET) esa yuqoridaqilarga qo'shimcha ravishda quyosh nurlanishing ta'sirini ham o'z ichiga oladi.

Ob-havoning inson uchun qulay yoki noqulayligini aniqlashda "qulaylik hududi" tushunchasi qo'llaniladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik odamlar 17 dan 23 °C gacha bo'lgan shartli harorat oralig'ida o'zini eng qulay his qiladi. Agar harorat shu chegaradan

tashqariga chiqsa, inson sovuqni yoki issiqni sezishi boshlaydi. Ayniqsa, faol dam olish uchun eng maqbul sharoit 12-16 °EET oralig‘ida bo‘ladi.

Ob-havo sharoitlarining xilma-xilligini baholash uchun 16 tasnif mavjud bo‘lib, ular uchta katta guruhga ajratiladi: sovuq bo‘lmagan ob-havo (8 sinf), havo haroratining 0°C dan o‘tishi (2 sinf) va ayozli ob-havo (6 sinf). Bu tasniflar turli iqlim sharoitlarida insonning moslashish qobiliyatini baholash va dam olish uchun eng qulay joylarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ob-havoning barcha sinflari inson uchun eng qulay hisoblanadi, chunki kun davomida quyosh yetarli miqdorda bo‘lsa, ko‘rinadigan va ultrabinafsha nurlar yaxshi tarqaladi, yorug‘lik va atrofdagi landshaftlar esa yanada jozibali bo‘ladi. Shu bilan birga, ob-havo sharoitining o‘zgaruvchanlik darajasi ham muhim omil hisoblanadi. Kontrast o‘zgaruvchanlik qiymati bo‘yicha quyidagi ob-havo rejimlari ajratiladi: juda barqaror (25% gacha), barqaror (25-34%), o‘zgaruvchan (35-50%) va juda o‘zgaruvchan (50% dan ortiq). Ushbu tasnif ob-havo sharoitlarining doimiyligi yoki o‘zgarish tendensiylarini baholashga yordam beradi.

Ob-havo sharoitining inson organizmiga ta’sirini baholashda tana va atrof-muhit o‘rtasidagi issiqlik almashinuvi muhim rol o‘ynaydi. Chunki inson tanasi asosan harorat sezgirligi orqali o‘zining qulay yoki noqulay holatini belgilaydi. Shu bois, ob-havoning insonning issiqlik holatiga ta’sirini obyektiv baholash uchun tananing termoregulyator mexanizmlarining kuchlanish darajasi mezon sifatida olinadi. Bu esa inson tanasining o‘rtacha og‘irlikdagi haroratining o‘zgarishi yoki terlash miqdorining o‘zgarishi bilan belgilanadi.

Inson tanasining issiqni sezish darajasiga qarab, ob-havo sharoitlari to‘qqiz toifaga ajratilgan bo‘lib, bu tasnif o‘ta sovuqdan juda issiqliqchasi bo‘lgan sharoitlarni qamrab oladi. Inson uchun eng qulay sharoit "qulay holat" deb nomlanib, bu holatda odam na issiqni va na sovuqni his qiladi. Bunday muvozanatli termal hisning shakllanishi uchun teri yuzasining o‘rtacha harorati 31-33 °C bo‘lishi kerak.

Issiq ob-havoda organizmning termoregulyatsiya mexanizmlari terlash orqali ishlaydi, sovuq havoda esa teri harorati organizmning moslashish darajasini belgilaydi. Insonning ob-havoni qabul qilish darajasi faqat fiziologik omillar bilan emas, balki subyektiv baholash natijalariga ham bog‘liq bo‘lib, bu maqsadda so‘rovnama usuli ham qo‘llaniladi. Ushbu yondashuv ob-havoning inson kayfiyatiga, faoliyatiga va hissiy holatiga ta’sirini o‘rganish imkonini beradi.

Psixologo-estetik baholash esa tabiat manzaralarining inson ongiga qanday ta’sir qilishini o‘rganadi. Bu yerda tabiiy landshaftning umumiyl estetik qimmati yoki uning alohida tarkibiy qismlarining inson hissiyotlariga ta’siri tahlil qilinadi. Bunda insonning ma’lum bir tabiiy kompleksiga bo‘lgan hissiy reaktsiyasi o‘rganiladi. Shu sababli, yuqori estetik qimmatga ega bo‘lgan joylar har doim katta talabga ega bo‘ladi. Bu esa turizm, rekreatsiya va ekologik muhitni yaxshilash strategiyalarini ishlab chiqishda muhim omil hisoblanadi.

O‘zbekistonning Buxoro viloyati iqlimi jihatdan qulay sharoitlarga ega hududlardan biri hisoblanadi. Ushbu viloyatning iqlimi bir qancha tabiiy omillarning o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi va uning assosiy xususiyatlarini geografik joylashuvi belgilaydi. O‘rta Osiyo Evroosiyo materigining ichki qismida joylashgan bo‘lsa, Buxoro viloyati esa O‘rta Osiyo cho‘llarining markaziy qismida bo‘lib, subtropik cho‘l iqlimi xususiyatlariga ega. Viloyat uchun xarakterli bo‘lgan keskin kontinental iqlim kun va kecha, qish va yoz haroratlari o‘rtasidagi katta tafovut, nisbatan sernam va o‘zgaruvchan bahor fasli, uzoq davom etuvchi jazirama yoz, qisqa va beqaror kuz hamda iliq, ba’zan esa sovuq va barqaror bo‘lmagan qish bilan tavsiflanadi. Ayniqsa, viloyatning yoz fasli juda issiq, quruq va nihoyatda yorug‘ bo‘lib, iyun oyidan noyabr oyigacha davom etadi, bu esa rekreatsion imkoniyatlarni shakllantirishda muhim omil sanaladi.

Buxoro viloyati serquyosh hududlardan biri bo‘lib, yil davomida quyoshli kunlar soni 2800-3000 soatni tashkil etadi, bu esa Toshkent va Termiz kabi shaharlardagi mos ko‘rsatkichlarga juda yaqin. Viloyatda quyoshdan keladigan radiatsiyaning yalpi miqdori 150-160 kkal/sm² ga yetadi, bu esa issiqlikni sevuvchi madaniy o‘simliklarni yetishtirish uchun qulay sharoit yaratadi. Bundan tashqari, o‘rtacha kunlik harorat 10°C dan yuqori bo‘lgan kunlarning yillik yig‘indisi

4800-5100°C oralig‘ida bo‘lib, bu uzoq vegetatsiya davriga ega o‘simliklarni ekish uchun juda mos keladi. Ayni paytda, viloyatda eng sovuq oy yanvar bo‘lsa, eng issiq oy iyul hisoblanadi.

Bunday iqlim sharoitlari nafaqat qishloq xo‘jaligi uchun, balki turizm va dam olish infratuzilmasini rivojlantirish uchun ham katta imkoniyatlar yaratadi. Issiq va quyoshli kunlarning ko‘pligi, yorqin tabiiy landshaftlar va nisbatan uzoq davom etuvchi iqlimiylar barqarorlik viloyatni sayyoohlari uchun jozibador hududga aylantiradi. Shu boisdan, Buxoro viloyatining iqlimiylar salohiyatidan samarali foydalanish va uni rekreatsion turizm rivojlanishiga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Muallif postpandemiya sharoitida turizmni rivojlantirish, hududlarda turistik salohiyatdan samarali foydalanish va tabiiy-rekreatsion resurslarni muhofaza qilishni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish maqsadida quyidagi takliflarni ilgari suradi:

- Barcha hududlar bo‘yicha tabiiy-rekreatsion resurslar va ob’ektlarning ro‘yxatini shakllantirish;
- Hududlardagi tabiiy-rekreatsion resurslar va ob’ektlarning ekologik, texnologik, tabiiy hamda iqtisodiy jihatdan to‘liq kadastr ma’lumotlarini yaratish;
- Tabiiy-rekreatsion resurslarning iqtisodiy bahosini ishlab chiqish va ulardan samarali foydalanish strategiyasini shakllantirish;
- Yuqorida qayd etilgan tadbirlarni amalga oshirish maqsadida Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan grantlar ajratish, loyiha tanlovlarini o‘tkazish va ilg‘or g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlash;
- Olingan ma’lumotlar va baholash natijalaridan hududlarni rivojlantirish dasturlarida foydalanish tizimini yo‘lga qo‘yish.

Ushbu chora-tadbirlar hududlarning tabiiy-rekreatsion salohiyatidan samarali foydalanish, turizm infratuzilmasini takomillashtirish hamda ekologik barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Xulosa.

Hududlarning tabiiy-rekreatsion resurslarini baholash va ulardan oqilona foydalanish masalasi ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, rekreatsion resurslarni baholash turli yondashuvlarga ega bo‘lib, ular tabiiy-iqlimiylar, tarixiy-madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarni qamrab oladi. Ayniqsa, tabiiy-rekreatsion resurslarning iqtisodiy jihatdan baholanishi ularni samarali boshqarish va muhofaza qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tabiiy resurslar ham iqtisodiy qiymatga ega bo‘lishi lozim. Har bir xizmat yoki mahsulotning qiymatini aniq belgilash orqali ulardan samarali va barqaror foydalanish ta’milanadi. Tabiiy-rekreatsion resurslarning iqtisodiy baholanishi nafaqat ularni muhofaza qilish, balki rekreatsion turizmni rivojlantirish uchun ham zarur.

Hozirda tabiiy resurslarni baholash bo‘yicha mavjud metodikalar to‘liq shakllanmagan bo‘lib, ularning aniq iqtisodiy qiymatini belgilashga doir tizimli yondashuvlar zarur. Shu sababli, tabiiy-rekreatsion resurslarni baholash tizimini takomillashtirish, ularni iqtisodiy jihatdan tahlil qilish va turizm infratuzilmasini rivojlantirishga oid chora-tadbirlarni amalga oshirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Зиганшин И.И., Иванов Д.В. Методика комплексной оценки рекреационного потенциала особо охраняемых природных территорий”. <https://cyberleninka.ru/article/n/metodika-kompleksnoy-otsenki-rekreatsionnogo-potentsiala-osobo-ohranyaemyh-prirodnyh-territoriy>.
2. Королева И. Функциональная модель рекреационной оценки сельской местности. https://www.researchgate.net/publication/334400653_Funktionalnaa_model_rekreacionnoj_ocenki_selskoj_mestnosti.
3. Поросенков Ю.Б., Мишон Е.Б. “К вопросу об оценке рекреационного потенциала территории”. <http://www.vestnik.vsu.ru/pdf/geograph/2009/02/2009-02-02.pdf>.

4. Гета Р.И. , Егорина А.В., Сапаров К.Т., Женсикбаева Н.Ж. Метод оценки рекреационного потенциала казахстанской части алтая на основе теории информации. <https://expeduction.ru/ru/article/view?id=8666>.
5. N.Grdzelishvili va L.Kvaratskhelia. Methodological features and problems of assessment of tourist and recreational resources of the territory. <https://cyberleninka.ru/article/n/methodological-features-and-problems-of-assessment-of-tourist-and-recreational-resources-of-the-territory>.
6. Stupen N. Methodological fundamentals of the assessment of the recreational territories resource potential <https://www.cabidigitallibrary.org/doi/pdf/10.5555/20193245047>.
7. Yavmutov D. S. Mintaqaviy ekologik-iqtisodiy barqaror rivojlanish konsepsiyasini ishlab chiqish-hududiy rivojlanishning ustuvor yo ‘nalishi sifatida //Gospodarka i Innowacje. – 2024. – Т. 52. – С. 132-142.
8. Yuldasheva B. The current state of green spaces and their historical changes in Bukhara City //BIO Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – Т. 84. – С. 01039.